



## NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

210800, Tomdi tuman, Yangi Tomdi qo'rg'oni, tel: (79) 582-13-13, fax: 582-13-22, e-mail: tomdi@nv.uz

2023 - yil 21 - dekabr

99-5-75-Q/23

Tomdi tumani hokimligi

### **Tumanda transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va uni o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda), "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 15-son, 197-modda) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021y., 09/21/125/0195-son) muvofiq tumanda transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va uni o'tkazish maqsadida

### **QAROR QILAMAN:**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga, 2024 yilda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo'yidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan

(haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari

va ularning tirkamalari – bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi – shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr' - 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar' – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma'lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikasiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish tavsiya etilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Texnik ko'rik davomida komissiya tarkibida ish olib borgan xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinishi inobatga olinsin.

10. Tuman hokimining 2022 yil 30 dekabrda 142-5-75-Q/22-sonli "Tumanda transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini tashkil etish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qaror "Tamdi sharuageri" tuman mahalliy gazetasida e'lon

qilinsin hamda tuman hokimligining “tomdi.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

12. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari R.Qunaqbaev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**K.Aldabergenov**

Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 21-dekabrda  
99-5-75-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

## Majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasining

### TARKIBI

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	D.Yo'ldoshev	Tuman IIB YHXG katta inspektori, komissiya raisi
2.	O.Xayrullaev	Tuman IIB HPB katta inspektori
3.	Sh.Yuldoshev	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi tuman bo'limi bosh inspektori
4.	B.Norboev	Viloyat transport boshqarmasi, transportni rivojlantirish sho'basi yetakchi mutaxassisi

Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 21-dekabrda  
99-5-75-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**2024 yilda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarini  
majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali**

<b>№</b>	<b>Tashkilot va xo'jaliklar nomi</b>	<b>1-bosqichda o'tadigan transport vositalar soni</b>	<b>O'tkazish sanasi</b>	<b>2-bosqichda o'tadigan transport vositalar soni</b>	<b>O'tkazish sanasi</b>	<b>Texnik ko'rikdan o'tkazish joyi</b>
1.	"TOMDI CHORVASI" FERMER XO'JALIGI	1	1.03.24 y	-	-	"Keregetov" OFY
2.	"AZIA-GOLD-BUILDING" MCHJ	2	4.03.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
3.	"GARDEN RESORT TOMDI" MCHJ	1	5.03.24 y	-	-	"Sharq" OFY
4.	"GOLDEN KVARIS" MCHJ	1	7.03.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
5.	"JI LONG WIND POWER" MCHJ	12	11.03.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
6.	"MEGA KVARTS" MCHJ	2	14.03.24 y	-	-	"Keriz" OFY
7.	"NAVOIY VILOYATI TOZA HUDUD" DUK TOMDI FILIALI	1	18.03.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
8.	"OLTIN-VODYI-TOMDI" MCHJ	1	19.03.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
9.	"OQTOG`-TOMDI DAVLAT QO'RIQXONASI	2	25.03.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
10.	"OYDIN HAYOT-GEO" MCHJ	6	26.03.24 y	6	5.09.24 y	Yangi Tomdi qo'rg'oni
11.	"QIZILQUM CHORVA KOMPLEKSI" MCHJ	1	29.03.24 y	-	-	"Ayaqquduq" OFY

12.	OOO "QIZILQUM DRILLING AND PRODUCTION"	7	1.04.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
13.	"QIZILQUM ZAMIN GULSHANI" FERMER XO'JALIGI	1	4.04.24 y	-	-	"Ayaqquduq" OFY
14.	"QURILISH-GROUP" MCHJ	2	5.04.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
15.	"SHIMOLIY PLATINA" MCHJ	3	8.04.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
16.	"SIFAT-QURULISH-ZARAFSHON" MCHJ	1	10.04.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
17.	"STROY MONTAJ SET" MCHJ	2	11.04.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
18.	"TOMDI AGRO FERMA" FERMER XO'JALIGI	3	12.04.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
19.	"TOMDI RIAL" FERMER XO'JALIGI	1	15.04.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
20.	TUMAN SANITARIYA- EPIDEMIOLOGIK OSOYISH TALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO'LIMI	2	16.04.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
21.	"TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH" UK	19	17.04.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
22.	"ZAR DESERT HORSE" MCHJ	2	22.04.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
23.	"VELLA-PLYUS" MCHJ	1	23.04.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
24.	TUMAN KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKKA KO'MAKLASHISH BO'LIMI	3	25.04.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
25.	TOMDI TUMAN URMON XO'JALIGI BO'LIMI	4	29.05.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
26.	TUMAN HOKIMLIGI	8	2.05.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni

27.	"MAHALLA" XJF TUMAN BO"LINMASI	1	6.05.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
28.	"SAHRODAGI JANNAT TRANS SERVIS" MCHJ	1	7.05.24 y	1	9.09.24 y	"Tomdibuloq" OFY
29.	"SHAXRUD" XUSUSIY KORXONASI	6	13.05.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
30.	"TOMDI OMAD" FERMER XO'JALIGI	1	16.05.24 y	-	-	"Ayaqquduq" OFY
31.	TUMAN QISHLOQ XO'JALIGI BO'LIMI"	1	17.05.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
32.	"TOMDI-FAYZ-TONGI" MCHJ	1	20.05.24 y	-	-	"Ayaqquduq" OFY
33.	"ZARAFSHAN GOLDEN GROUP 2020" MCHJ	3	21.05.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
34.	"ZARAFSHON BUILDING CENTRE" MCHJ	1	24.05.24 y	-	-	"Keriz" OFY
35.	"AYaQQUDUQ" SHIRKAT XO'JALIGI	2	27.05.24 y	-	-	"Ayaqquduq" OFY
36.	"BALIMANOV" SHIRKAT XO'JALIGI	7	28.05.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
37.	"BIRLIK" SHIRKAT XO'JALIGI	3	31.05.24 y	-	-	"Shieli" OFY
38.	"KEREGETAU" SHIRKAT XO'JALIGI	3	3.06.24 y	-	-	"Keregetov" OFY
39.	SFT DEPARTAMENTI TOMDI TUMAN MA'MURIY SUDI	1	5.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
40.	TUMAN OBODONLASH TIRISH BOS HQARMASI	9	6.06.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
41.	TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	11	10.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
42.	TUMAN DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASI	1	13.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni



43.	"TOMDI FAYZ" MCHJ	1	13.06.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
44.	"JANNA" FERMER XO'JALIGI	1	14.06.24 y	-	-	"Sharq" OFY
45.	"XOLIQOV BOBUR" FERMER XO'JALIGI	2	14.06.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
46.	TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI	3	17.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
47.	"BEGIMBET ORISKUDUK" XUSUSIY KORXONASI	2	18.06.24 y	-	-	"Aqtov" OFY
48.	UZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TOMDI TUMAN KENGASHI	2	19.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
49.	"JANASHARUA" SHIRKAT XO'JALIGI	1	20.06.24 y	-	-	"Suketti" OFY
50.	"KERIZBULOQ" SHIRKAT XO'JALIGI	1	21.06.24 y	-	-	"Keriz" OFY
51.	OOO "AXMEDOV BAXROM 2020"	1	21.06.24 y	-	-	"Keriz" OFY
52.	OOO "COPPER-BOTTOMED"	1	24.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
53.	CIIOOO AN SHUN MAX CONSTRUTIONS TOMDI	1	24.06.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
54.	TUMAN VETERINARIYA VA ChORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO'LIMI	2	25.06.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
55.	"TOMDI SAVDO" MCHJ	2	26.06.24 y	-	-	"Tomdibuloq" OFY
56.	ATB "AGROBANK" TOMDI FILIALI	1	27.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni
57.	TUMAN MADANIYAT BO'LIMI	1	27.06.24 y	-	-	Yangi Tomdi qo'rg'oni

58.	“TOMDI” SHIRKAT XO‘JALIGI	1	28.06.24 y	-	-	“Tomdibuloq” OFY
<b>JAMI:</b>		<b>164</b>		<b>7</b>		

**D.Yo‘ldoshov – tuman  
IIB YHXG katta  
inspektori, komissiya  
raisi**